

## O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

**Astanov Sherzod Rustamovich**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining investitsion jozibadorligi yuqori bo‘lgan hududlarida turizm sohasini rivojlantirish jarayonlari, asosiy tendensiyalar va ularni shakllantiruvchi omillar tahlil qilinadi. Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Xorazm (Xiva) va Farg‘ona vodiysi kabi hududlar misolida infratuzilma modernizatsiyasi, xizmat sifati, eko-agro turizm, marketing va xalqaro hamkorlik kabi yo‘nalishlardagi rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur hududlarda turizmni rivojlantirishda duch kelinayotgan muammolar, mavjud salohiyat va istiqbolli takliflar asosida tahlil etiladi. Maqola yakunida ushbu tendensiyalarni barqarorlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** turizm, investitsion jozibadorlik, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, eko-agro turizm, infratuzilma, xizmat sifati, marketing, hududiy rivojlanish, xalqaro hamkorlik.

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются процессы развития туристической отрасли в регионах Республики Узбекистан с высокой инвестиционной привлекательностью. На примере таких регионов, как город Ташкент, Самарканд, Бухара, Хорезм (Хива) и Ферганская долина, анализируются показатели развития по направлениям: модернизация инфраструктуры, качество сервиса, эko-аgro туризм, маркетинг и международное сотрудничество. Также в статье выявляются проблемы, возникающие в процессе развития туризма в этих регионах, анализируются их потенциал и перспективные предложения. В заключительной части статьи представлены практические рекомендации по устойчивому развитию обозначенных тенденций.

**Ключевые слова:** туризм, инвестиционная привлекательность, Ташкент, Самарканд, Бухара, Хива, эko-аgro туризм, инфраструктура, качество услуг, маркетинг, региональное развитие, международное сотрудничество.

### **Abstract**

This article explores the development processes of the tourism sector in regions of the Republic of Uzbekistan with high investment attractiveness. Using the examples of Tashkent city, Samarkand, Bukhara, Khorezm (Khiva), and the Fergana Valley, the article analyzes development indicators in areas such as infrastructure modernization, service quality, eco-agro tourism, marketing, and international cooperation. It also

examines the challenges faced in tourism development within these regions and analyzes the existing potential and forward-looking proposals. The article concludes with practical recommendations for ensuring the sustainability of these trends.

**Keywords:** tourism, investment attractiveness, Tashkent, Samarkand, Bukhara, Khiva, eco-agro tourism, infrastructure, service quality, marketing, regional development, international cooperation.

## **KIRISH**

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy iqtisodiyotda turizm sohasi nafaqat xizmatlar sektorining muhim tarkibiy qismi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishiga turtki beruvchi strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, investitsion jozibadorligi yuqori bo'lgan hududlarda turizmni rivojlantirish, u yerda mavjud tabiiy, tarixiy, madaniy va me'moriy resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida turizm sohasi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da turizmni rivojlantirish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash kabi masalalar asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa investitsion salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda turizm sohasining yanada jadallashuviga zamin yaratmoqda.

Bunday hududlarda — xususan, Toshkent shahri va viloyati, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo hamda Farg'ona vodiysi viloyatlarida — ko'p yillik tarixiy-madaniy meros, tabiiy landshaftlar va zamonaviy transport-kommunikatsiya imkoniyatlari mavjud bo'lib, ular turizmni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, investorlarga taqdim etilayotgan imtiyozlar, byurokratik to'siqlarning qisqartirilishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ham turizm sohasi jadal rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu ilmiy ishda investitsion jozibadorlik va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning hududiy rivojlanishga ta'siri, zamonaviy tendensiyalar hamda istiqbolli yo'nalishlar chuqur tahlil qilinadi. Shu orqali hududiy turizm siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Turizm va investitsiya sohaslarining o'zaro bog'liqligi, ularning hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'рни ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan,

turizmni rivojlantirishda investitsion muhitning barqarorligi, infratuzilmaning holati va davlat siyosatining ragʻbatlantiruvchi mexanizmlari asosiy omillar sifatida koʻriladi.

Xalqaro adabiyotlarda turizm sohasi va investitsiyalar oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlikka bir nechta yondashuvlar mavjud. Danningning “OLI paradigm” modeli (Ownership, Location, Internalization) investitsiya oqimlarini aniqlashda joylashuv omilining (location advantage) muhimligini taʼkidlaydi. Bu nazariya turizm sektoridagi bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini tahlil qilishda keng qoʻllaniladi. Buxalis (D. Buhalis, 2000) turizmning raqobatbardoshligi infratuzilma, marketing strategiyasi va davlat siyosati bilan chambarchas bogʻliq ekanligini taʼkidlaydi. U oʻz tadqiqotlarida “destination competitiveness” (yoʻnalma raqobatbardoshligi) tushunchasini ilgari surgan va unda sarmoya oqimini jalb qilish mezonlarini belgilagan.

Porterning raqobat ustunligi nazariyasiga koʻra esa, investitsion jozibadorlikni oshirish uchun turizm resurslaridan samarali foydalanish bilan birga, innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish ham zarur. Shuningdek, Smith (M. Smith, 2015) hamda Telfer va Sharpley (2016) oʻz tadqiqotlarida rivojlanayotgan davlatlarda turizm orqali iqtisodiy oʻsishni jadallashtirish imkoniyatlarini koʻrsatadi. Ular turizmning ijtimoiy va ekologik barqarorlik bilan uygʻunlashuvi investitsiya oqimini ushlab turishdagi muhim omil ekanligini taʼkidlaydi.

Oʻzbekistonlik olimlar ham soʻnggi yillarda turizmni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish muammolarini chuqur tahlil qilmoqda. Jumladan, A. Joʻrayev 2020-yilda Oʻzbekistonda turizmni hududiy rivojlantirish strategiyalarini oʻrganib, investitsion salohiyatni baholashda hududiy differensial yondashuv zarurligini asoslaydi. M. Allaberganov va Sh. Qurbonov 2021-yilda oʻz izlanishlarida turizm klasterlarini shakllantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish boʻyicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan. Ular Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy markazlarda turizm infratuzilmasining rivojlanishini investitsion faollik bilan bevosita bogʻlaydi. D. Tursunov 2022-yilda turizm sohasidagi investitsion loyihalarni baholashda iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari (NPV, IRR, ROI) asosida qarorlar qabul qilish zarurligini taʼkidlagan.

Davlat tomonidan eʼlon qilingan 2022–2026-yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ham turizm sohasi investitsiyalar oqimi orqali rivojlantirilishi kerakligi alohida urgʻu bilan qayd etilgan. Ushbu rasmiy hujjat ilmiy tadqiqotlar uchun muhim empirik asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, turizm va investitsiya sohalari oʻzaro chambarchas bogʻlangan boʻlib, ularni kompleks tarzda rivojlantirish — ayniqsa investitsion jozibadorlik yuqori boʻlgan hududlarda — iqtisodiy oʻsish, bandlik va ijtimoiy barqarorlikning muhim omiliga aylanadi. Xalqaro va mahalliy izlanishlar bu

yoʻnalishda ilmiy asoslangan yondashuvlar va strategik qarorlar ishlab chiqish zarurligini taʼkidlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasi strategik ahamiyatga ega tarmoq sifatida shakllanmoqda. Xususan, investitsion jozibadorligi yuqori boʻlgan hududlarda turizmni rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy oʻsish taʼminlanmoqda, balki hududlararo tafovutlar qisqarib, mahalliy aholi bandligi ham oshmoqda. Davlat siyosati, institutsional islohotlar va xalqaro hamkorlik doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar bu jarayonni jadallashtirmoqda.

Investitsion jozibadorlik — bu mamlakat, mintaqa yoki sohaning xorijiy va mahalliy investorlar uchun investitsiya kiritish nuqtai nazaridan maʼqul, ishonchli va daromadli boʻlgan darajasini ifodalaydi. Ushbu atama iqtisodiyot nazariyasida va amaliy investitsiyalar tahlilida keng qoʻllaniladi. Investitsion jozibadorlik investorlarga qaror qabul qilishda asos boʻlib xizmat qiladi, chunki u ularning xavflarni kamaytirib, foyda olish imkoniyatlarini baholashiga yordam beradi.

Nazariy yondashuvlar:

a) Klassik yondashuv. Klassik iqtisodiy nazariya vakillariga koʻra, investitsiyalar asosan foyda normasi va bozor hajmi bilan bogʻliq. Agar biror hududda yuqori talab va past raqobat boʻlsa, u jozibador hisoblanadi.

b) Institutsional yondashuv. Douglass North va boshqa olimlar bu masalaga institutsional muhit orqali yondashadi. Yaʼni, investitsion jozibadorlik quyidagilarga bogʻliq: huquqiy barqarorlik, mulk huquqining kafolatlanishi, sud tizimining ishonchliligi kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

c) Rivojlanish iqtisodiyoti nazariyalari. Bu yondashuvda eʼtibor infratuzilma, kadrlar salohiyati, innovatsion muhit va davlat qoʻllovi kabi omillarga qaratiladi. Zamonaviy iqtisodiy model investitsion jozibadorlikni kompleks koʻrsatkichlar orqali baholaydi.

Investitsion jozibadorlik — bu oddiygina “qanday qilib investorni jalb qilish mumkin?” degan savolga ilmiy, tizimli va real tahlillarga asoslangan javobdir. Bu tushuncha orqali davlatlar va hududlar oʻz iqtisodiy siyosatini shakllantirib, raqobatbardosh muhit yaratishga intiladi.

Oʻzbekiston hududlari turizm sohasida katta investitsion salohiyatga ega boʻlib, har bir viloyat oʻziga xos turistik resurslar, infratuzilma darajasi va qoʻllab-quvvatlovchi mexanizmlari bilan ajralib turadi. Toshkent shahri va viloyati zamonaviy infratuzilma va biznes-turizm uchun qulay muhit bilan ajralib tursa, Samarqand, Buxoro va Xiva tarixiy obidalari bilan jahon sayyohlarini jalb qilmoqda.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Toshkent, Samarqand va Buxoro hududlari yuqori infratuzilma va davlat qo‘llovi bilan ajralib turadi. Xorazm va Farg‘ona vodiysi madaniy va agro-turizm sohalarida istiqbolli hisoblanadi. Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston esa tabiiy va ekstremal turizm imkoniyatlari bilan ajralib turadi, biroq infratuzilmani rivojlantirish bu hududlar uchun ustuvor vazifadir. Shu asosda hududlarning o‘ziga xos salohiyatidan kelib chiqib, investitsiya loyihalarini diversifikatsiya qilish zarur (1-jadval).

**1-jadval**
**Turizm bo‘yicha investitsion jozibadorlik<sup>1</sup>**

Hudud	Turistik salohiyat	Infratuzilma	Imtiyozlar	Investitsiya yo‘nalishlari
Toshkent shahri/viloyati	Transport, zamonaviy shahar	Yuqori	Erkin iqtisodiy zonalar	Biznes-turizm, kongresslar
Samarqand	UNESCO yodgorliklari, tarixiy obidalar	O‘rtacha-yuqori	Davlat qo‘llovi	Tarixiy turizm, mehmonxonalar
Buxoro	Tarixiy markaz, qadimiy arxitektura	O‘rtacha	Preferensiyalar	Mehmonxonalar, ekskursiyalar
Xiva (Xorazm)	Ichan-Qal‘a, tarixiy shahar	O‘rtacha	Preferensiyalar	Madaniy turizm, qo‘llanmalar
Farg‘ona vodiysi	Hunarmandchilik, tabiat go‘zalliklari	O‘rtacha	Mahalliy dasturlar	Eko va agroturizm
Surxondaryo	Tog‘lar, arxeologik topilmalar	Past-o‘rtacha	Rivojlanayotgan hudud	Sarguzasht turizm
Qoraqalpog‘iston	Orolbo‘yi, ekologik turizm manbalari	Past	Orolbo‘yi strategiyasi	Ekologik va ekstremal turizm

Farg‘ona vodiysi hududlari an’anaviy hunarmandchilik va eko-agro turizm imkoniyatlari orqali qishloq turizmini rivojlantirishda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston esa o‘zining tabiiy va ekologik resurslari bilan ekstremal, sarguzasht va ekologik turizm turlarini rivojlantirish uchun noyob platforma yaratmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda infratuzilma va xizmatlar darajasi past bo‘lgani sababli, investorlar uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari talab etiladi. Davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan imtiyozlar, iqtisodiy zonalar hamda turizmni rivojlantirishga qaratilgan hududiy strategiyalar bu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida turizm yo‘nalishida investitsiya uchun imkoniyat mavjud bo‘lib, har bir hududning o‘ziga xos

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

xususiyatlarini inobatga olgan holda yo‘naltirilgan, ixtisoslashtirilgan investitsiya strategiyasi ishlab chiqilishi zarur (2-jadval).

## 2-jadval

### Turizmni rivojlantirishdagi muammolar<sup>1</sup>

Hudud	Muammolar	Takliflar
Toshkent shahri/viloyati	Transport tiqilinchligi, ekologik muammolar, yuqori narxlar	Transportni yaxshilash, narx nazorati, ekologik muhofaza
Samarqand	Mehmonxonalar yetishmaydi, xizmat sifati notekis	Mehmonxonalarni ko‘paytirish, servisni yaxshilash
Buxoro	Eski infratuzilma, gidlar yetarli emas	Infratuzilmani yangilash, gidlarni tayyorlash
Xiva (Xorazm)	Marketing zaif, rejalashtirishda muammolar	Strategiyani yangilash, reklama va PR ishlarini kuchaytirish
Farg‘ona vodiysi	Kadrlar yetishmovchiligi, yo‘llar yomon, reklama sust	Kadrlar tayyorlash, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, reklama

Investitsion jozibadorligi yuqori bo‘lgan hududlar, xususan, Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Xorazm (Xiva) va Farg‘ona vodiysi turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Bu hududlar tarixiy-madaniy meros, tabiiy go‘zalliklar va markaziy infratuzilma bilan ajralib turadi. Biroq ushbu imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalanish yo‘lida qator tizimli muammolar mavjud. Ayniqsa, infratuzilmaning ayrim joylarda eskirgani, xizmat ko‘rsatish sifati pastligi, transport va ekologik muammolar, malakali kadrlar yetishmasligi hamda zamonaviy marketing vositalarining yetarli darajada qo‘llanilmayotgani turizm sohasining barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun har bir hududga xos yechimlar zarur:

- Toshkentda transport va ekologik barqarorlikni ta‘minlash;
- Samarqand va Buxoroda yangi mehmonxona va xizmat tarmoqlarini kengaytirish;
- Xivada brending va marketingni kuchaytirish;
- Farg‘ona vodiysida esa kadrlar tayyorlash va infratuzilmani yaxshilash lozim.

Investitsiya uchun jozibali bo‘lgan hududlarda turizmni kompleks rivojlantirish — faqat tabiiy va tarixiy resurslarga emas, balki zamonaviy boshqaruv, xizmat sifati va marketingga ham tayanishi kerak. Davlat, xususiy sektor va mahalliy jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik orqali bu muammolarni yechish mumkin.

Mamlakatimizda investitsion jozibadorligi yuqori bo‘lgan hududlarda turizmni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari quyidagilardan iborat:

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

1. Infratuzilma modernizatsiyasi. Toshkent shahri va viloyatida aeroportlar, transport infratuzilmalari, yo‘l-chorraha tizimlari modernizatsiya qilinmoqda. Samarqand va Buxoroda eski mehmonxonalar rekonstruksiya qilinib, zamonaviy servis ko‘rsatish imkoniyatlari yaratilmoqda. Natijada hududlararo bog‘lanish yaxshilangani sayyohlar oqimini oshirmoqda.

2. Tarixiy obidalar va madaniy merosni tiklash. UNESCO himoyasidagi obidalar Registon, Ichan-Qal‘a, eski shahar hududlari tiklanib, infratuzilma (zamonaviy avtoturargohlar, axborot panellari, yo‘llar) bilan boyitilmoqda. Natijada madaniy turizm segmentining hajmi sezilarli darajada oshmoqda.

3. Xizmat va mehmonxonachilik sektorini rivojlantirish. Samarqand va Buxoroda xalqaro brendlar (Hilton, Wyndham kabi) mehmonxonalar ochilmoqda. Servis sifati, gidlar malakasi, onlayn rezervatsiya tizimlari optimallashtirilmoqda. Natijada yuqori darajadagi turistlar oqimi kuchaymoqda.

4. Eko-agro turizm va mahalliy mahsulotlar rivoji. Farg‘ona vodiysi, shuningdek, Qoraqalpog‘iston va Surxondaryo hududlarida eko-turlar, agro-ferma tajribalariga qaratilgan sayohatlar tashkil etilmoqda. Mahalliy hunarmandchilik va gastronomik an‘analar sayyohlik brendi sifatida ilgari surilmoqda. Natijada qishloq hududlaridagi iqtisodiy farovonlik kuchaymoqda.

5. Raqamli marketing va brend strategiyalar. Xiva, Samarqand va Toshkent kabi shaharlarda turizm marketingi kuchaytirilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar (sayyohlar uchun AR yo‘riqnomalar), xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish — bu sohadagi umumiy tendensiyalardir. Natijada turistlarning milliy va xalqaro miqyosdagi e‘tibori ortmoqda (3-jadval).

### 3-jadval

#### Tendensiyalarning asosiy omillari<sup>1</sup>

Asosiy omil	Mazmuni (ta‘sir doirasi)
<b>Davlat siyosati</b>	Investitsiya imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar, turizmni ustuvor soha sifatida belgilash
<b>Huquqiy muhit</b>	Investorlarga kafolatlar, soddalashtirilgan tartiblar, litsenziyalash jarayonlari
<b>Infratuzilma holati</b>	Aeroportlar, yo‘llar, mehmonxonalar, transport va aloqa tizimi
<b>Ijtimoiy barqarorlik</b>	Xavfsizlik, jamoaviy madaniyat, sayyohlarga nisbatan ijobiy munosabat
<b>Mehnat resurslari</b>	Malakali gidlar, servis xodimlari, turizm ta‘lim muassasalari
<b>Marketing va raqamlashtirish</b>	Brending, SMM, onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar
<b>Mahalliy hamkorlik</b>	Aholi ishtiroki, mahalliy tadbirkorlar, hunarmandlar, mahalliy mahsulotlar
<b>Xalqaro hamkorlik</b>	YUNWTO, IKAO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan loyihalar

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda kuzatilayotgan tendensiyalar chuqur va ko‘p omilli asoslarga ega. Jadvalda keltirilganidek, ushbu tendensiyalarni shakllantirayotgan asosiy omillar davlat siyosati, huquqiy muhit, infratuzilma, marketing, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro hamkorlik o‘zaro uzviy bog‘liq holda harakat qilmoqda.

Avvalo, davlat siyosatining aniq yo‘naltirilganligi va turizm sohasiga strategik e‘tibor qaratilayotgani, investitsiya uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Bu esa nafaqat mahalliy, balki xorijiy investorlar uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu bilan birga, soddalashtirilgan huquqiy tartibotlar va iqtisodiy imtiyozlar turizm faoliyati bilan shug‘ullanishni yengillashtirmoqda.

Infratuzilmaning rivojlanishi (yo‘llar, mehmonxonalar, transport vositalari) sayyohlarni qulay qabul qilish imkonini bermoqda. Xizmat ko‘rsatish sifati esa malakali ishchi kuchiga bog‘liq bo‘lib, bu borada turizm ta‘lim muassasalari sonini ko‘paytirish muhim vazifadir. Shuningdek, marketing va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali turistik hududlar haqida ma‘lumotlar tez, aniq va jozibador shaklda yetkazilmoqda. Bu esa milliy brendni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Mahalliy hamkorlik va xalqaro tajriba almashinuvi esa sohaga barqarorlik va raqobatbardoshlik olib kelmoqda. Umuman olganda, yuqoridagi omillar O‘zbekistonda turizm sohasida kuzatilayotgan ijobiy o‘zgarishlarning asosiy tayanchlaridir. Har bir omil o‘zaro uyg‘unlikda harakat qilsa, turizm sohasidagi yuksalish barqaror va uzoq muddatli bo‘lishi muqarrar.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish milliy iqtisodiy strategiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, investitsion jozibadorligi yuqori bo‘lgan hududlarda Toshkent shahri va viloyati, Samarqand, Buxoro, Xiva hamda Farg‘ona vodiysida turizm salohiyati sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Bu hududlar tarixiy-madaniy meros, boy madaniyat, zamonaviy infratuzilma va davlat tomonidan yaratilayotgan qulay investitsiya muhiti bilan ajralib turadi.

So‘nggi yillarda turizmga kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar — infratuzilmani modernizatsiya qilish, servis sifatini oshirish, eko-agro va qishloq turizmini kengaytirish, marketing strategiyalarini kuchaytirish hamda xalqaro hamkorliklarni faollashtirish kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonlar davlat siyosati, huquqiy kafolatlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va mahalliy tashabbuslarning uyg‘unlashuvi orqali amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, mazkur hududlarda turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki mahalliy aholi bandligini oshirish, hududlararo tenglikni ta‘minlash va milliy brendni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida bu tendensiyalarni

chuqurlashtirish uchun barqarorlik, xizmat sifati va innovatsion yondashuvlar ustuvor bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, investitsion jozibadorlikka ega hududlarda turizmni kompleks rivojlantirish O‘zbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki global turizm xaritasida kuchli o‘rin egallashiga turtki bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2023). Tourism statistics 2022. <https://stat.uz/en/>
2. World Tourism Organization (UNWTO). (2022). International tourism highlights – 2022 edition. <https://www.unwto.org>
3. Ministry of Tourism and Cultural Heritage of the Republic of Uzbekistan. (2023). Strategic development plan for tourism 2023–2026. <https://uzbektourism.uz>
4. Karimov, M. B. (2021). The role of investment attractiveness in tourism development of Uzbekistan. *Journal of Economics and Innovative Technologies*, 5(3), 14–20.
5. Tursunov, B. O. (2020). Infrastructure factors and their impact on tourism development. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(7), 403–410.
6. Fayzullaev, R. R. (2022). Tourism potential and investment attractiveness of historical cities in Uzbekistan. *Modern Research in Economics*, 6(4), 56–64.
7. Nuriddinova, M. (2023). Analysis of sustainable tourism practices in the Fergana Valley. *Central Asian Journal of Environmental Science and Technology Innovation*, 3(2), 77–84.
8. United Nations Development Programme (UNDP). (2021). Ecotourism development strategy for Central Asia. <https://www.undp.org>
9. Azizov, A., & Yusupova, D. (2020). Digital marketing and tourism promotion in Uzbekistan. *Asian Journal of Research in Marketing*, 9(1), 45–52.
10. Abdurakhmanov, K. E., & Daminov, D. B. (2021). Prospects for the development of cultural tourism in Uzbekistan. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 3(2), 88–95.
11. OECD. (2020). Tourism trends and policies: Uzbekistan country profile. <https://www.oecd.org>
12. Jalolov, S. H. (2023). Investment climate and regional tourism development. *International Journal of Business and Management Studies*, 11(1), 101–109.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, iyul, 7-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**